



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

3(11)
2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№3(11) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-methodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-methodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

6	Xudoymurodova Dilafuz. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	226
	Qayimov Laziz Mirzo o'g'li. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib va tinglab tushunish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish	229
	Djo'rayeva Dilfuza Nuriddin qizi, Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda mayda motorika ko'nikmalarini shakllantirish orqali tayanch kompetensiyalarining rivojlanishi.....	234
	Одилова Наргиза Акрамовна. Методика развития творческого мышления учащихся начальных классов на естественнонаучной основе	238
	Рахимова Махлиё Акрамовна. Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения.....	241
	Oybek Ortiqov. Yoshlar tarbiyasi davr talabidir.....	245
	Исмамов Шухрат Убайдович. Ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш –ижтимоий фаолликни ривожлантирувчи омил сифатида.....	249
	Nazarov Farhod Allaberdiyevich. O'zbek xalq qo'shiqlarni o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida (Buxoro bolalar folklyori misolida).....	258
	Farmonov O'tkir Alimovich. Oliy ta'lim muassasalarining sport faoliyati basketbol yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining jismoniy rivojlanishi va o'ziga xos imkoniyatlarini nazorat qilish tizimi takomillashtirish.....	262

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI.....269

	Myxamedova Dilbar Gafurdjanovna, Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi. O'smirlarda depressiyaning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	269
	Kudratov Akmaljon Ibodillayevich. Ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishda motivlar ta'sirini aniqlashning eksperimental tahlili.....	274
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ibroximov Farruxbek Farhod o'g'li. Talabalarning o'quv faoliyatiga emotsional intellektning ta'siri.....	278
	Kuvandikova Gulnora Gulamovna. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati iste'dodni rivojlantirish omili sifatida	283
	Latipova Umida Yusufboyevna. Talabalar ijodiy faollik motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarning psixologik ahamiyati.....	287
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi. Psixologiyada emotsional kreativlikning nazariy va amaliy o'rganilishi	292
	Husenov Nodir Nuriddinovich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ulotirish texnikasini o'rgatish metodikasi	297
	Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich. Huquqiy ong va bilimlar shakllantirishning psixologik xususiyatlari	302
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Mohira Ilg'or qizi Ilxomova. Kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquvning emotsional xolatlarga ta'siri	307
	Usmanaliyeva Gavhar Akbarali qizi. Bilingvizm va multilingualizm.....	311
	Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish psixologik tadqiqot obyekti sifatida	315
	Jurayeva Halima Alisher qizi. Shaxs tashabbuskorligini aniqlash metodlari taxlili	319
	Salomova Guli Shodimurodovna. Madaniyatlararo munosabatlarning tanqidiy tafakkurdagi rolini o'rganish.....	323
	Каланходжаева К.Б. Роль ведущего полушария в осуществлении психических функций и обучении студентов.....	328
	Бурунова Камола Бахтиёровна. Психология эмоциональных отношений родителей и детей в современных семьях.....	332
	Tajibayev Shohruh Maqsudovich. Maktab o'qituvchilarida psixologik stress namoyon bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablari.....	336
	Хазиева Эльвира Дияверовна. Мобильные приложения и современная молодежь.....	340

YOSHLAR TARBIYASI DAVR TALABIDIR

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasi har zamonda muhimligi, tarixiy taraqqiyotda ta'lim-tarbiya, shaxsning rivojlanish jarayonlari, tarbiyaning mazmuni haqida bayon qilinib, ajdodlarimiz yaratgan asarlarining qiyosiy tahlili, tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, axloq, odob, ta'lim, yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti, fozil odam, saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus, e'tibor, yuksak axloq, ma'naviy sifat, mafkuraviy immunitet, oila, fazilat.

Аннотация: В данной статье описывается значение воспитания молодежи во все времена, образования в историческом развитии, процессы развития личности, содержание образования, проводится сравнительный анализ произведений, созданных нашими предками, и взгляды на образование.

Ключевые слова: воспитание, нравственность, нравы, воспитание, воспитание молодежи, человеческое совершенство, добродетельный человек, счастье, честь, мир, удовольствие, честь, внимание, высокая нравственность, духовные качества, идейный иммунитет, семья, добродетель.

Abstract: This article describes the importance of youth education at all times, education in historical development, the processes of personal development, the content of education, a comparative analysis of the works created by our ancestors, and opinions on education.

Key words: education, morality, manners, education, youth education, human perfection, virtuous person, happiness, honor, peace, pleasure, honor, honor, attention, high morality, spiritual quality, ideological immunity, family, virtue.

Kirish. Yuksak axloqiy sifatlarga ega yoshlarni tarbiyalash har zamonda ham muhim sanalgan. Mamlakat iqtisoiy, siyosiy, madaniy hayotini, taraqqiyotini asosini yoshlar tarbiyasi tashkil etadi. Yoshlar tarbiyasi hamma vaqt, hamma joyda eng asosiy, dolzarb masala sanaladi. Tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida milliy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Yoshlarni halol pokiza bo'lishida, ilm asoslarini egallashlarida ma'naviy, axloqiy, diniy qadriyatlarini egallashlarida, ta'biatdagi ne'matlarni e'zozlashlarida rol o'ynaydigan jihat sanaladi. Pedagog olimlarimizning izohlarida tarbiya tushunchasiga bergan ta'riflarida bejizga ijtimoiy tarixiy tajriba asosida shakllanadi degan iboraning ishlatilishidan bilishimiz mumkinki, tarbiya tarix, bugun va kelajakning ishi ekanligi bilan har zamonda kerak va zarur. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning jadidlar haqidagi fikrlarini aytib o'tmoqchiman: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi". Yoshlar tarbiyasida payg'ambarimizning fikrlari, tarbiya borasida aytgan fikrlarini "Sahih hadislar" jamlagan alloma Imom al-Buxoriy, Imom-at Termiziy, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy singari allomalarning ilmiy merosida axloq, xulq, odob, ma'naviy yetuklikka chorlovchi qarashlar aks etganligi bilan diqqatga sazovordir.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi: Yoshlarni tarbiyalash har zamonda muhim ekanligini yodimizda tutishimiz kerak, bu borada xatolikka yo'l qo'yish jamiyat, davlat, eng asosiy kelajakka xiyonat qilish hisoblanadi. Tarbiya davlat siyosatida ustuvor vazifa bo'lib, jamiyatimizda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmonida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"[4] singari vazifalarning qo'yilishi ham bevosita tarbiya bugungi kunda asosiy masalalardan ekanligidan dalolat beradi.

Tarbiyning eng yuksak namunasi islomda payg'ambarimiz Muhammad (a.s.v) bo'lib, diniy manbalarda go'zal xulq, odob, tarbiyalarning namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Alloma Abu Nasr Farobiy "Talhizu Navomus" asarida inson kamoloti haqida to'xtalar ekan, "Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odamlar bo'lishlari, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysinishi ta'minlash uchun takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkamlashdir" [11,23-b] deb qonunlarlar jamiyatda tarbiyali insosnlarni, baxtli, fozil odamlarni shakllantirishga xizmat qilishi haqida mulohazalar bildirgan.

Jadid ma'rifatparvarlaridan Abdurauf Fitrat "Oila" nomli asarida tarbiya borasida to'xtalar ekan, "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonda quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan... Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus, e'tibor kerak bo'lsa tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim" – deb, ta'kidlaydi.

Biz, shaxsda muayyan [jismoniy](#), [ruhiy](#), [axloqiy](#), [ma'naviy](#) sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning [jamiyatda](#) yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisiga tarbiya deb tariflaymiz. Haqiqatdan ham tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlarni tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga yetkaza olamiz.

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila va uni boshqarish" nomli asarida inson umrini sakkiz davrga bo'lgan bo'lib, har bir davri o'zining tarbiyaviy xislatlari bilan ahamiyatli bo'lib, "Hakimlar tomonidan inson umrini sakkiz davrga go'daklik davri, bolalik davri, balog'at davri, rivojlanish davri, kamolot davri, nihoyat davri, birinchi qarilik davri, ikkinchi qarilik davri" [9, 54-b] taqsim qilganlar. Shuningdek, tarbiya haqida to'xtalgan Fitrat "Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalima "bola tarbiyasi" [9,70-b] -deb ta'kidlaydi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnak bo'lmog'i lozim.

Bola oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmi, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi. "Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" [9,78-b]. Aynan shu vaqt oralig'i ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'illanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Abduruf Fitratning "Oila va uni boshqarish" asarini tahlil etar ekanmiz, bolaning saodati va baxti uning tarbiyalanganligida aks etadi. Asar mazmuniga tahlil etar ekanmiz, "saodat va baxtsizlik, ranj va rohatni bir-biridan farq qilish, biriga erishib ikkinchisidan qochish qo'llaridan kelmaydi. Shunday beaqlilik va axloqsizlik darajasiga tushganlarga gapirish, ularning e'tiroziga ahamiyat berish behuda azob tortish" bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin[9, 78-b].

Abdurauf Fitratning "O'talarimiz farzandlarini zamona talablariga muvofiq tarbiya qilganlarida edi, bugun shunday qiyin ahvolga tushmas edik. Bu ahvolga tushgan ekanmiz, uning

sababi o'sha tarbiyadadir, ya'ni ota-onamizdan olgan tarbiyamiz yoki tarbiyasizligimizdir", - deb ta'kidlaydi.

Natijalar. Shaxsning shakllanishida tarbiyaning ahamiyati hadiqa to'xtalar ekanmiz, uchta omilning ahamiyati muhimdir. Birinchisi – atrof-muhit, ikkinchisi – ta'lim va tarbiya va uchinchi – irsiyat. O'zbek davlatchiligining muhim o'ringa ega Sohibqiron Amir Temur ham o'z davrida o'g'il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Oilaning mustahkam bo'lishidagi asosiy mas'uliyat oila boshlig'i zimmasida, deb bilgan Sohibqiron: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim", – deydi. Shuningdek, sarkardaning quyidagi so'zlari yanada ibratli: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning ta'siri bunyodidan kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta'sir etgay, debon shu pokiza yo'lni tutdim"[9,78-b]. Demak, Amir Temur nafosat manbasi pokizalik, tartib-intizom oila kuch-qudratini yuksaltirib, jamiyatga poydevor bo'lishini yaxshi bilgan.

Jadidchilik harakati namoyondalaridan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari bosh qahramonlaridan Otabekning Qutudor xonadonida mehmondorchilikda bo'lgan jarayonini Qutudorning xonadonidagi To'ybeka tomonidan yuksak ta'rif berilganligining o'zi ham Yusufbek xoji xonadonida tarbiyalangan farzandning juda odobli, aqlli va muomalasidan uning nihoyatda tarbiyali ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tarbiyani aytishimiz mumkinki har zamonda ham muhim ekanligini bevosita tarixiy jarayonning o'zi ko'rsatib bermoqda. Bugungi kunda tarbiya va tarbiya jarayonini samaradorligi bevosita ta'lim jarayonida uyg'unlashganligini yaqqol dalilidir. Yurtimiz rahi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni ham yosh avlod tarbiyasi va ularni tarbiyalash uchunamalga oshirilishi kerak bo'ladigan ishlarning mazmuniga singirilgan.

Muhokama. Avvalo, shuni aytish joizki, har bir davr jumladan jadidchilik harakati namoyondalarining asarlarida, inqilobiy g'oyalar emas, ma'rifatchilik, komillik qarashlarini ilgari suradi. Mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi va qoralovchi fikr-mulohazalar yo'q bo'lishiga qaramay, "Padarkush" asari yangi g'oyani targ'ib etishning yangi usuli sifatida yuzaga keldi. Oilada ota-onaning ta'limga sarf qilingan sarmoyasi pirovardida farzandning kamoloti o'z natijasini berishi tabiiy. Ko'z oldimizga Boy obrazi orqali pul topishga, mol-dunyo to'plashga aqli yetgan ammo farzand tabiyasi uchun vaqtini ham, moddiy imkoniyatini ham qizg'ongan johil, qoloq ota qiyofasi keladi. O'zining ham ilm va ma'rifatdan bexabarligi bois, Domlaning ham, Ziyolining ham nasihat va maslahatlariga quloq tutmaydi; savollariga qo'pollik bilan, beparvo, loqayd, hatto farzandini o'qitish masalasini jiddiy deb tushunish o'rniga ensasi qotadi. Boyning dunyoqarashini inson qadri ham, obro'-e'tibori ham boylik bilan o'lchanadigan mavqe, va badavlatligi tufayli hamma uni izzat-hurmat qiladi degan razilona qarash egallab olgan. Dramada boyning eng katta xatosi ziyoli kishining so'zlariga quloq solmasdan, quloq solsa ham, noilojlikdan, mudrab, o'z jigarbandining taqdiriga befarq qaraganidir. Demak ayta olishimiz mumkinki "Padarkush" drammasi ham bevosita tarbiya masalasiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Farzand tarbiyasida haqida ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida bunday keltiradi: "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar" [12, 28-b].

Insonning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy va aqliy xislatlarini uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblanadi. Agar, odam to'g'ri tarbiyalanib, odamiylik xislatlarini o'zida mujassam etgan bo'lsa, bu uning eng qimmatli boyligi va baxti bo'lsa, noto'g'ri tarbiya esa odamni baxtsizlikka, hatto halokatga yetaklashi mumkin. Aslida, maktab tarbiyasidan ham avval oila tarbiyasiga katta e'tibor qaratiladi. Chunki oilada farzand tarbiyasiga qo'yilgan tamal toshi to'g'ri qo'yilsa, maktab ta'limi uchun ham katta tayanchdir, aksincha, oilada ilk tarbiya

talab darajasida olib borilmasa, maktabdagi ta'lim-tarbiya ishi o'zining kutilgan natijasini bermaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytganda, yoshlar mafkuraviy immunitetini, fikrini ravon bayon qila oladigan, yuksak marralarni ko'zlaydigan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti muhimdir. Kelajak avlod yetuk va komil inson bo'lib shakllanishi uchun kitob mutolaasi uchun hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni tashkil qilish, ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi orqali qalbiga go'zallik his-tuyg'usini singdirishi muhimdir.

Yoshlarning ma'naviy dunyosini egallashga qaratilgan turli mafkuraviy bo'xronlar va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan davrda o'zi kimlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtiga sadoqat va mehr-muhabbat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi chinakamiga barqaror yoshlarga ona yurtimizni yot va begona g'oya va kuchlardan asrashga hamda jonajon vatanimizni barcha jabhalarda kamol toptirishga o'z hissasini qo'sha oladi. Biz ota-onalar farzandlarimizni shunday tarbiya qilishimiz kerakki, ular o'z ajdodlariga, o'z o'tmishiga, Ona vataniga, ona tiliga, millatiga, diniga va qadriyatlariga sodiqlik bilan xizmat qiladigan inson bo'lib kamolga yetishadilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston. 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307 sonli qarori. // Xalq so'zi 2019 yil 4 may
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmoni
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 278b.
6. Mirziyoyev Sh. M "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: Tasvir nashriyoti uyi, 2021. -36b
7. Abu Homid G'azzoliy Ey, farzand «ayyuhal valad» asarining o'zbek tilidagi tarjimasi (qayta nashr) Toshkent. Movarounnahr. 2005 yil. 54-b
8. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 96 b.
9. Abdurauf Fitrat. Oila: -Toshkent: Manaviyat nashriyoti, 2000. -112b
10. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-sodat va kamolot haqida: – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2001.- 64b.
11. Abu Nasr al- Farobiy. Nufuzli shahar ahvoli. T.: 1998-y 23-b
12. Amir Temur. "Temur tuzuklari". – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996. – 168b.
13. Imom Al-Buxoriy. Al Adab al mufrat: –Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2005. - 201b.
14. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: "Istiqlol", 1994. – 174 b.
15. Ortiqov O. R. Talabalar ma'naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirishda "Qobusnoma" asaridan foydalanish //Conferencea. – 2023. – C. 1-5.
16. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 160-165.
17. Ortiqov O. R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta'lim mussasalari misolida) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – C.1130-1135.